

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


09 dekabr, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-05 dekabr Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

SQB va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,881% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,842% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,392% – 9,126% gacha o'zgarib turdi.
- 2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,438% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 9,471% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 9,269% – 9,439% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,440% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,434% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,171-8,878% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,91-4,51% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,12% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz pasayib, 3,93% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,075% (3 oylik) va 2,147% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo **862,1** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **247,9** million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **11 895** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib **11 990** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya **7,08%** ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




09.12.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Octobank**da qayd etilgan – **12 010** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 020–12 070** so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **Poytaxt bank**da qayd etilgan – **11 980** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **11 970 – 11 935** so'm atrofida bo'lgan.

USD-RUB dinamikasi




➤ 2025 yil dekabr oyining boshida USD/RUB kursi pasaydi

2025 yil dekabr oyining boshida AQSh dollari va Rossiya rubli o'rtasidagi kurs biroz pasayishni namoyish qildi. 1 dekabrdan 5 dekabrgacha kotirovkalar 77,9 dan 77,3 RUB/USD gacha kamaydi, ko'rib chiqilayotgan davrdagi o'rtacha kurs esa 77,76 ni tashkil etdi.

Rublning bunday mustahkamlanishi bir qator omillar bilan bog'liq: Rossiya Markaziy bankining valyuta intervensiyalari fonida milliy valyutaning kuchayishi, neft narxlarining ijobiy dinamikasi hamda xorijiy valyutaga bo'lgan mavsumiy talabning qisqarishi. Texnik tahlil shuni ko'rsatadiki, kurs asosiy qo'llab-quvvatlash darajalari yaqinida qolmoqda, bu esa qisqa muddatli istiqbolda mo'tadil volatillik saqlanib qolishini kutishga imkon beradi.

RUB-YUAN dinamikasi




➤ RUB/CNY kursi barqaror qolmoqda

2025-yil dekabr oyining boshida Rossiya rubli va Xitoy yuani o'rtasidagi kurs deyarli barqaror bo'lib qoldi. 1–5 dekabr kunlari kotirovkalar 10,6–10,7 RUB/CNY oralig'ida tor diapazonda tebrandi, davr uchun o'rtacha kurs 10,62 ni tashkil etdi.

Bunday barqarorlik valyuta bozoridagi talab va taklif muvozanati, Xitoy bilan savdo hajmining o'rtacha dinamikasi, shuningdek, kursga keskin ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim tashqi siyosiy yoki iqtisodiy omillarning yo'qligi bilan izohlanadi. Texnik tahlil past volatillikni tasdiqlaydi, shu bilan birga kurs asosiy qo'llab-quvvatlash darajalariga yaqin holatda qolmoqda.

EUR-USD dinamikasi




➤ Yevro dollarga nisbatan barqaror o'sishda

2025-yil dekabr oyining boshida yevro va AQSH dollari o'rtasidagi kurs asta-sekin mustahkamlanishni davom ettirdi. 1–5 dekabr kunlari kotirovkalar 1,1615 dan 1,1671 gacha oshdi, davr uchun o'rtacha kurs esa 1,1654 ni tashkil etdi.


Yevroning o'sishi investorlarning AQSH va Yevropa pul-kredit siyosatiga oid kutishlari, shuningdek, Yevropa iqtisodiyotining barqaror tiklanayotganini ko'rsatuvchi iqtisodiy indikatorlar e'lon qilinishi bilan bog'liq. Texnik tahlil yevroning asosiy qo'llab-quvvatlash darajalaridan yuqorida o'z pozitsiyasini saqlab turganini ko'rsatadi, bu esa qisqa muddatli ijobiy trenddan dalolat beradi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlarini dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



Brent nefti narxlarini dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



TTF gaz narxlarini dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



- Oltin narxlarini o'sishini davom ettirmoqda: 2025-yil noyabr oxiriga kelib narxlar keskin oshdi

2025-yil dekabr oyining boshida oltin narxi biroz pasaydi: 1-dekabrda 4241,5 darajasidan 5-dekabrda 4196,5 gacha tushdi, davr uchun o'rtacha narx esa 4211,7 ni tashkil etdi. Qisqa muddatli pasayishning asosiy sababi milliy valyutaning mustahkamlanishi, lokal maksimumdan keyingi texnik korreksiya hamda oy boshida yuzaga kelgan makroiqtisodiy yangiliklarning ta'siri bilan izohlanadi. Shunga qaramay, kotirovkalar asosiy qo'llab-quvvatlash darajalaridan yuqori darajada saqlanib qoldi, bu esa oltinning himoya aktiv sifatida investorlar orasida hanuz katta qiziqish uyg'otayotganidan dalolat beradi.

- Neft narxlarini mo'tadil o'sishda

Neft narxlarini investorlar AQSH Federal Rezerv tizimi foiz stavkasini pasaytirishi mumkin degan kutishlar fonida mo'tadil o'sishni davom ettirmoqda. Bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantirib, energiya resurslariga bo'lgan talabni oshirishi mumkin. Shu bilan birga, bozorlar Rossiya va Venesueladan neft yetkazib berish bilan bog'liq geosiyosiy xatarlarni diqqat bilan kuzatmoqda. Ukraina bo'yicha muzokaralar sekin davom etmoqda, o't ochishni to'xtatish ehtimoli va Rossiya neftiga nisbatan sanksiyalarni chetlab o'tish imkoniyatlari narxlar uchun qarama-qarshi omillarni yuzaga keltirmoqda. Xitoy Eron nefti xaridini oshirmoqda, AQSHda esa burg'ulash uskunalarini soni ko'paymoqda. Natijada bozor taklifning ortib ketishi va yetkazib berish cheklanishi xavfi o'rtasida muvozanat holatiga duch kelmoqda.

- TTF gazi narxi dekabr boshida mo'tadil pasaydi

2025-yil dekabr oyining boshida TTF gazi narxi mo'tadil pasayishni ko'rsatdi: 1-dekabrda megavatt-soatiga 33,2 dollar darajasidan 5-dekabrda 31,6 dollargacha tushdi. Oying dastlabki besh kuni uchun o'rtacha narx megavatt-soatiga 32,42 dollarni tashkil etdi. Kotirovkalarining pasayishi mavsumiy talab qisqarishi, Yevropa bozoriga yetkazib berish hajmining oshishi va yumshoq ob-havo sharoitlari tufayli isitishga bo'lgan ehtiyojning kamayishi bilan izohlanadi. Texnik tahlil narxlarning asosiy qo'llab-quvvatlash darajalaridan yuqori darajada qolayotganini ko'rsatadi, bu esa qisqa muddatli tiklanish uchun potensialni saqlab qolmoqda.

Yangiliklar

AMINA Bank (Shveysariya bankining Avstriyadagi “dochka”si) — 2025-yil noyabr oyi boshida MiCA reglamenti asosida kripto-aktivlar bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish uchun litsenziya oldi: savdo, kastodiya, portfel boshqaruvi va transferlar. Bu Yevropada bunday litsenziyani rasmiy ravishda olgan ilk bank tuzilmalaridan biridir.

Fino Payments Bank (Hindiston) — 2025-yil 5-dekabrda Hindiston Rezerv Bankidan (RBI) “in-principle” tasdiq oldi va to'lov bankidan “kichik moliyaviy bank” (small finance bank) ga aylanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu bankka katta depozitlarni qabul qilish va jismoniy shaxslar hamda kichik biznesga kredit/qarz berish imkoniyatini ochadi — mijozlar uchun bank xizmatlarini kengaytirish bo'yicha muhim qadam hisoblanadi.

Klarna — 2025-yil 25-noyabrda kompaniya dollarga bog'langan KlarnaUSD barqaror kripto-valyutasini ishga tushirganini e'lon qildi. Bu, ilgari kredit va onlayn to'lovlarga e'tibor qaratgan fintech tashkilotlarning xizmatlarini raqamli valyutalar va transchegaraviy o'tkazmalar sohasiga kengaytirishga intilayotganini ko'rsatadi.

DBS Bank (Singapur) va Ant International hamkorlikni kengaytirmoqda — ular transchegaraviy to'lovlar va fintech xizmatlarini kuchaytirish maqsadida memorandum imzoladi. DBS foydalanuvchilari Alipay+ tarmog'i orqali butun dunyo bo'ylab yuz millionlab sotuvchilarda QR-to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek, deyarli darhol xalqaro o'tkazmalarini boshlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.